

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

Заҳириддин Муҳаммад Бобур номидаги
Андижон давлат университети

Хорижий тиллар факультети

**“ТАРЖИМАНИНГ ЛИНГВОКОГНИТИВ,
КОММУНИКАТИВ-ПРАГМАТИК
ВА ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИК
АСПЕКТАРИ”**

*Республика илмий-амалий анжумани материаллари
ТУПЛАМИ*



ЗАМОНАВИЙ ТАРЖИМАШУНОСЛИК ВА ТАРЖИМАНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

М.Т. Ахмедова. Таржимада услубий ўзига хослик.....	53
М.Бахриддинова. А.Ҳафизов. Таржима жараёнида мутаржим сўз бойлигининг роли.....	54
К.Н.Каримов., Н.Р.Маҳмудова. Адекватлик ва эквивалентлик – таржима назариясининг асосий тамойиллари	57
Филип Фризон. Страсбургдаги Марк Блок университетининг халқаро алоқалар ҳамда ёзма ва оғзаки таржима институти профессори. Таржима қилиш мумкин – мумкин эмас фикридан устивор бўлмоқ ақлий осон муаммодир. (Таржимон А.Мамадалиев...)	59
A.Musayev. I.B.Rahimova. Tarjimada shakl va mazmun birligining qayta yaratilishi.....	63
N. Nortoyeva. Les difficultés de traduction	66
L.M. Saidova., S.B. Jo‘rayeva. Tarjima san‘atining dunyo madaniyatida tutgan o‘mi.....	68
L.M.Saidova, A.A.Normatov O.Rakhmonova Tarjimada tarjimon mahorati.....	70
З.А. Туракулова. Бугунги кунда- таржимашунослик.....	72
Т.Б.Умирзақов Таржимада лексик маънонинг берилиши.....	73
Usmonova D.S., O.Sultankhanova. The concept of lexical equivalents in the modern theory of translation.....	78
Р.Х.Ширинова., М.Ш.Бобожонова. Восита тил орқали таржима қилиш муаммолари.....	80
M.Yusupova., Ch. Rahimova. Tarjima halqaro to‘siqlarni buzuvchi jarayondir.....	83

ancha murakkabdir. Sifatli tarjimaning asosi – matnni yetarli darajada tushunish va bu sohaning ustasi bo‘lishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘ofurov, O. Mo‘minov, N. Qambarov. Tarjima nazariyasi. Toshkent. 2012.
2. Musayev. Tarjima nazaryasi asoslari. Toshkent 2005.
3. G‘ofurov. G. O‘zbekistonda tarjimaning rivojlanishi. 1973.

TARJIMADA TARJIMON MAHORATI

L.M.Saidova, A.A.Normatov, o‘qituvchilar, O.Rakhmonova talaba (ADU)

Amerika tarjimashunosi S. Bassnet Makgayer xonim “Tarjimon avvalo o‘quvchi u matnni talqin etuvchi o‘quvchi” deb yozadi. Albatta tarjimon avvalo o‘quvchi chunki, o‘quvchi o‘qiydi tahlil qiladi, fikirlaydi va kerak bo‘lsa boshqalarga ham matn haqida ayta oladi. Lekin tarjimon faqat o‘quvchigina bo‘lib qolmasdan ijodkorlik mahoratidan foydalangan holda matnni o‘z ona tilida sayqallab boshqa bir o‘quvchiga taqdim eta olishi kerak. Tarjimon - tilni harakatga keltiruvchi shaxs. Qolaversa, tarjimon tillar sandig‘ini yangi so‘zlar, atamalar, iboralar gapni o‘zgacha avval ko‘rilmagan sinalmagan sintaktik qurilishlar bilan boyituvchisi hamdir. Shularni inobatga olgan holda bu soha vakillarini yozuvchilardan kam mehnat qiladi deb ayta olmaymiz. Sababi, u asarni oladi, o‘qiydi, tahlil qiladi unda yozuvchi nima demoqchiligini anglagan holda so‘z qurilishlarini, ma’no mazmunini o‘z ona tilisiga moslashtirib yoza boshlaydi. Muhimi tarjimon o‘zi tarjima qilayotgan asar mansub bo‘lgan xalqni madaniyatini bilishi kerak. Tarjima o‘rtacha ma’lumotli insonlar tushunadigan darajada bo‘lishi zarur. Faylasuf Rotjer Bekon o‘zini bosh asarida shunday yozadi “Bir til ikkinchi bir tilga tarjima qilinayotganda tarjima qilinayotgan tilning o‘ziga hos sifatlarini saqlab qolishning imkoni yo‘q. Hattoki shevalar ham bir-biridan farq qiladi. Misol uchun, agar kimdir mantiqni yaxshi bilsa uni o‘zini ona tiliga tarjima qilishga urinadi, keyin u o‘zining tarjimasi asliyatdan farq qilishini payqaydi. Ular boshqa tildagi ko‘p so‘zlardan foydalanishadi ya’ni tarjimon faqatgina tillarni bilishi emas, balki sub’yektni ham tadqiq etish shartdir” deydi va R.Bekon uning davrida bunday bilimga hech kim ega bo‘lmaganini yozadi.

XX asr Yevropaning eng yirik adiblaridan biri, asarlari ko‘p tillarga tarjima qilingan va o‘zi ham tarjimalar qilgan Umberto Eko “Aynan aytish, tarjima haqida tajribalar” kitobida “aynan shu narsaning o‘zini boshqa tilda aytib berish bu - tarjima” deb yozadi.

Masalan : lire – o‘qimoq

Je lis – men o‘qiyapman

Un livre – kitob

Je lis un livre – men kitob o'qiyapman yoki : C'est Alise. Elle va à l'école – bu Alisa. U maktabga ketyapti.

Bu sodda ta'rif, ammo u tarjimaning juda sirli va o'ta murakkab, og'ir soha ekanligini inkor etmaydi. Negaki, tarjimaga kirishmasdan burun tarjima qilinadigan asarni har tomonlama o'rganish, uning lug'ati va badiiy xususiyatlari ustida oldindan ish olib borish, asarning ichki tuzilishi qahramonlar harakat qilayotgan ijtimoiy-tarixiy muhit, badiiy tasvir vositalari uslubi haqida o'ziga hos material, ma'lumotnomalar tuzish zarur bo'ladi.

Masalan: Kimdir darvozani taqquillatgan paytda ichkaridan

- Kim u? – degan ovoz keladi.

Ruscha variantda : -Кто там?

Fransuzcha variantda : -Qui est là?

Bir qarashda ma'no uyqash, ammo o'zbek tilidagi u- kishilik olmoshi rus va fransuz tillarida "u yerda" so'zi orqali ifodalanmoqda. Shu bois tarjimada ma'lum tayyorgarliksiz ish boshlab bo'lmaydi. Yana shuni alohida ta'kidlash zarurki xalqlar, urf odatlar, muloqotlar o'rtasida ma'lum farqlar mavjud. Masalan biror bayram munosabati bilan tabriklash jarayonini kuzataylik :

- Bayramingiz bilan!

- С праздником!

- Bonne fête!

Bu o'rinda ma'no yaqinligi kuzatilmoqda, ammo farzand tug'ilganda aytiladigan so'zlarga e'tibor qaratsak:

- Qutlug' bo'lsin!

- Поздравляю с рождением ребёнка!

- Je vous félicite avec l'heureuse naissance de votre enfant.

Iboralarida rus va fransuz tillarida ma'no jihatdan yaqin lekin, o'zbek tilidagi iboraga aynan ma'nodosh emas.

Yana bir narsaga alohida e'tibor berishimiz kerak-ki, har bir xalqni o'ziga xos iboralari mavjud uni o'z holida tarjima qilishni albatta imkoni yo'q, lekin aynan o'zbekchadagi boshqa ibora bilan ham shundayligicha almashtirib qo'yolmaymiz. Aynan shu o'rinda tarjimonga katta mahorat va izlanish kerak bo'ladi. U iborani asosiy tarjima qilinayotgan tildagi ma'nosini o'zgartirmay aynan o'zbekona gaplarga emas, ham tarjima qilinayotgan til ham ona tiliga birday mos keladigan so'zlardan foydalanishni talab etadi. Nega endi bunday? Sababi tarjima asarini o'qiyotgan o'quvchida «ularda ham huddi bizda bor gaplar bor ekan» degan tasavvur paydo bo'ladi. Aynan o'zbek mentalitetiga mos kelmaydigan satrlar kelganda avvaldagi so'z yoki ibora bu asarga qanchalik yarashmay turganini payqaydi. Albatta bu o'quvchini fikri bo'lishi mumkin, lekin har bir badiiy asarga ham tarjima asarga ham aynan shu o'quvchi baho beradi va bularning barchasi u uchun yaratilgan. Asl yaratilgan asarmi, tarjima asarmi qaysisi bo'lmasin barchasi ijodkorning qalb qo'ri bilan yoziladi, yaratiladi.